

SIRDARYO VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGINING HUDUDIIY TARKIBI VA UNING MAMLUKAT IQTISODIIYOTIDAGI AHAMIYATI

O'ng'arov H.G'.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10029107>

Jahon qishloq xo'jaligi bozor sharoitlariga tobora ko'proq qaram bo'lib bormoqda, holbuki ilgari u asosan proteksionistik siyosat ta'sirida rivojlangan. Shunday qilib, rivojlanayotgan mamlakatlar oziq-ovqatga bo'lgan talabning ortib borayotgani, ishlab chiqarishning o'sish salohiyati va ko'plab jahon bozorlarida qiyosiy ustunliklarini hisobga olgan holda, endilikda sarmoyadan foydalanish va iqtisodiy foyda olish imkoniyatiga ega. Shunga ko'ra, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va modernizatsiya qilish mamlakatimizni iqtisodiy yuksaltirish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan har qanday makroiqtisodiy rivojlanish strategiyasining asosiy ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi agroiqtisodiyot sohalarining fundamental, birlamchi bo'g'ini bo'lishi bilan birga, mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida muhim o'ringa ega. Buni davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda, xususan respublika Prezidentining qaror va farmonlarida agrar sektorga alohida e'tibor qaratilganida ham ko'rish mumkin. Mamlakat aholisining deyarli yarmi qishloq joylarda istiqomat qilishi, yalpi ichki mahsulotda ham ushbu sektorning ulushi yuqoriligi fikrimiz dalilidir. Respublika qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berishda Sirdaryo viloyatining ham o'ziga xos va mos o'rni mavjud. Sirdaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining maydoni va aholi soni bo'yicha eng kichik ma'muriy birliklaridan sanaladi. U 16 fevral 1963 yilda tashkil etilgan, maydoni 4,28 ming kv. km yoki respublika hududining bor-yo'g'i 0,95 foizini tashkil etadi, xolos. Bu borada u mamlakatimizda oxirgi o'rinda turadi. Mamlakatimiz va iqtisodiy rayon hududiy mehnat taqsimotida bu viloyat avvalo qishloq xo'jalik mahsulotlariga, jumladan paxta, poliz ekinlari, don va boshqa mahsulotlarni yetishtirishga ixtisoslashgan. Xo'jaligi, umuman olganda, hududiy agro-industrial majmua shakliga ega. Qolaversa, ushbu viloyatning tashkil etilishini asosiy maqsadi ham yangi yerlar, ya'ni Mirzacho'lni o'zlashtirish asosida paxtachilikni rivojlantirish bo'lgan. Bundan taxminan 100 yil muqaddam mazkur cho'lning o'zlashtirilishi Chor Rossiyasi tomonidan boshlangan va u vaqtda juda katta maydonni egallovchi Sirdaryo viloyati (bo'limi) ham tashkil etilgan. Viloyat katta yer maydoniga ega emas; uning jami maydoni 427,6 ming gektar bo'lib, shundan 286,3 ming gektari yoki 66,9 foizi qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Bu respublikamizning qator hududlariga qaraganda ancha yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 92,0 foizini sug'oriladigan yerlar tashkil qiladi. Bu ham Xorazm, Andijon viloyatlariga o'xshash nihoyatda yuqori ko'rsatkichdir. Demak, Sirdaryoda yer-resurs salohiyatidan intensiv foydalanish koeffitsienti ancha katta. Har qanday mamlakatning yer maydoni uning muhim milliy boyligi sanaladi. Biroq, bu borada, eng avvalo, qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar, xususan bizning sharoitimizda sug'oriladigan yerlar katta ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar hissasi Oqoltin, Guliston, Sardoba tumanlarida nisbatan yuqori, sug'oriladigan maydonlar esa Oqoltin, Xovos, Sayxunobod kabi tumanlarda 95-100 foizni tashkil qiladi.

2020 yilda viloyat qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 8689,2 mlrd. so'mni yoki oldingi yilga nisbatan 10,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar- 8147,7 mlrd. so'mni, o'rmon xo'jaligi - 435,4 mlrd. so'mni, baliqchilik xo'jaligi - 106,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan.

Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Sirdaryo viloyatining ulushi 3,3 % ni tashkil etgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot va xizmatlar umumiy hajmining asosiy qismi (93,8 %) dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarga mos keladi, o'rmon xo'jaligining ulushi 5,0 %, baliq xo'jaligi hissasiga esa bor-yo'g'i 1,2 % to'g'ri keladi.

2017-yilda O'zbekiston qishloq xo'jaligida yangi yo'nalish – klaster tizimi paydo bo'ldi. Turli yo'nalishdagi klasterlar ishlab chiqilmoqda: paxta-to'qimachilik, meva-sabzavot, urug'chilik, g'allachilik, go'sht-sutchilik va hokazo. tayyor mahsulotlar-xomashyoni yetishtirishdan tortib, ularni qayta ishlash va yakuniy mahsulotni ishlab chiqarishgacha. Albatta, bu tizim endigina tashkil etilayotganini va zanjirning alohida bo'g'inlarida muammolar mavjudligini ta'kidlash joiz, ammo uni yanada rivojlantirish istiqbollari O'zbekiston qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beradi.

2019-yilda "2020-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlangan bo'lib, u quyidagi strategik ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi: aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash; qulay agrobiznes iqlimi va qiymat zanjirlarini yaratish; sohani boshqarishda davlatning rolini pasaytirish va investitsiya jozibadorligini oshirish; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash; zamonaviy davlat boshqaruvi tizimlarini rivojlantirish; sektorni qo'llab-quvvatlash uchun davlat xarajatlari bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish; ilm-fan, ta'lim, qishloq xo'jaligida axborot va konsalting xizmatlari tizimini rivojlantirish; qishloqni rivojlantirish; tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish. Uning doirasida 2030 yilgacha quyidagi asosiy ko'rsatkichlarga erishish kutilmoqda:

- 1,1 million gektar qishloq xo'jaligi yerlarini o'zlashtirish, 535,6 ming gektar lalmi, yaylov va boshqa yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- qishloq xo'jaligida o'rtacha mehnat unumdorligini 1,7 baravarga oshirish (har bir xodimga yiliga 6,5 ming AQSH dollarigacha);
- qayta ishlangan mahsulotlar stavkasini 30% gacha oshirish;
- eksport hajmini 20 milliard dollarga oshirish.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda katta hududiy tafovutlar ham ko'zga tashlanadi. Eng yuqori hajm Xovos (1319,3 mlrd. so'm) va Sayxunobod (1269,8 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin, Yangier va Guliston shaharlarini hisobga olmaganda Sardoba va Mirzaobod qishloq tumanlarida kuzatiladi. Tahlil qilinayotgan yilda xo'jalik toifalari bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 59,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 32,9 % fermer xo'jaliklariga va 7,8 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda. 2020 yilda qishloq xo'jaligining barcha toifalari tomonidan 467,2 ming t. donli ekinlar ishlab chiqarilgan. Don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 79,4 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Donli ekinlardan viloyatda qisman sholi ham ekiladi. Sirdaryoda azaldan polizchilik, xususan qovun, tarvuz yetishtirish (Mirzacho'l qovunlari) yaxshi rivojlangan. 2020 yilda 239,5 ming tonna poliz mahsulotlari yetishtirilgan. Bu yerda sabzavotchilik ham rivojlanib bormoqda; yalpi hosili – 307,0 ming tonna.

Bog'dorchilik va uzumchilik Sirdaryoda nisbatan sustroq tashkil etilgan. Yirik shoxli qoramollar soni 469,0 ming, qo'y va echkilar 355,1 ming bosh. Bir yilda tirik vaznda 69,1 ming

tonna go'sht, 360,4 ming t sut, 174,9 mln dona tuxum, 9012,9 tonna baliq olingan. Chorvachilik sohasida mahsulotning ko'pchilik qismini dehqon xo'jaliklari beradi. Ma'lumki, iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi tarmog'ini shakllanishi va rivojlanishida irrigatsiya infratuzilmasi katta ahamiyat kasb etadi. Viloyatda ham yerlarni sug'orish maqsadida qator irrigatsiya infratuzilma shaxobchalari, jumladan, magistral kanal va ariqlar qazilgan (Sarkisov nomli Janubiy Mirzacho'l, Do'stlik kanali va uning markaziy hamda chap, o'ng irmoqlari, Jizzax mashina kanali, 1 va 2 mashina kanallari). Shuningdek, boshqa yangi yerlar o'zlashtirilgan mintaqalarga xos bo'lgan qator kollektor va drenajlar, tashlamalar ham qurilgan. Masalan, Markaziy, 1 va 2 Sardoba, Boyovut, Sho'ro'zak va boshqa kollektorlar, Sharqiy tashlamasi va h.k. Kanal, kollektor va tashlamalar viloyat irrigatsiya va melioratsiya infratuzilmasining o'zagini tashkil etadi. Kanallar viloyatning janubida ko'proq bo'lsa, kollektorlar uning quyi va markaziy qismlarida zichroq joylashgan.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4633-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-iyundagi qarori. "Mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarni yanada qo'llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3077-son.
3. Soliev A.S. O'zbekiston geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) / Darslik.- T.: Universitet, 2014. – 404 b.
4. Курбанов Ш.Б. Ўзбекистон қишлоқ туманлари ижтимоий-иқтисодий географияси. – Т.: Мумтоз сўз, 2019. – 218 б.
5. www.stat.uz
6. www.sirstat.uz